XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-avgust VI-98-96-10-141-K/24 Parkent tumani

Parkent tumanidagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 11-iyundagi Toshkent viloyati hokimligiga kiritgan 05/08-5733-sonli xati va xatga ilova qilingan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 3-iyundagi yig‘ilish bayoni va “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini shuningdek, “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 2-iyuldagi 1/12-4-3075-sonli yig‘ilish bayonlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” raisining o‘rinbosari D.Azimboyevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 11-iyundagi Toshkent viloyati hokimligiga kiritgan 05/08-5733-sonli xati va xatga ilova qilingan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 3-iyundagi yig‘ilish bayoni va “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tumandagi mahalla fuqarolari yig‘inlarida joylashgan geografik obyektlar (ko‘cha, maydon, istirohat bo‘g‘i, xiyobon, ziyoratgoh, qabriston) nomlari qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari B.Soatov, tuman Ozbekiston Respublikasi Mahallalar uyushmasi Parkent tuman bo’limi (Sh.Bobotoyev) 1 oy muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomi o’zgargan qabristonlarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma bosqich o‘rnatish, almashtirish, barcha mahalla fuqarolar yig‘ini tizimidagi ish yurituv hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” (D.Azimboyev)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bilan nomlari o‘zgartirilgan mozorlarning kadastr hujjatlarini qayta rasmiylashtirish, ro‘yxatga olish va boshqa turdagi davlat xizmatlari uchun davlat boji hamda to‘lovlar undirilmasdan qayta rasmiylashtirib berilishi ta’minlansin.

5. Mazkur qaror “Parkent tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini ta`minlash Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” raisining o‘rinbosari D.Azimboyev, hamda ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (K.Islomov) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi

BERDIQULOVA
MAVLUDA
TOJIDDINOVNA

Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-96-10-141-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Parkent tumanidagi nom berish yoki ularni qayta nomlash taklif etilayotgan Geografik obyektlar to’grisida

MA`LUMOT

T/r	Geografik obyekt ning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1.	Qabriston	Istiqbol MFY	Nomsiz	Ma’murota	2008-yilda ochilgan qishlog‘ini qurilish va ta‘mirlai ishlarida jonkuyarlik ko‘rsatganligi va birinchi bo‘lib dafn etilgan Ma’mur ota nomi bilan nomlangan
2.	Qabriston	Bog‘bon MFY	Nomsiz	Olimota	2007-yilda ochilgan mahallani infratuzilmasini yaxshilashda qo‘shgan katta hissasi uchun va birinchi bo‘lib dafn etilgan Olim ota nomibilan bog‘liq
3.	Qabriston	Boyqozon MFY	Nomsiz	Orifota	1995-yilda ochilgan qishlog‘ini qurilish va ta‘mirlai ishlarida jonkuyarlik ko‘rsatganligi va birinchi bo‘lib dafn etilgan Orif ota nomi bilan nomlangan
4.	Qabriston	Boyqozon MFY	Nomsiz	Xolbuvaota	1960-yilda ochilgan va birinchi bo‘lib dafn etilgan Xolbuva nomi bilan nomlangan

5.	Qabriston	Yoshlik MFY	Nomsiz	Talabota	1900-yilda ochilgan va birinchi bo‘lib dafn etilgan Talab ota nomi bilan nomlangan
6.	Qabriston	Markaziy MFY	Nomsiz	Markaziyruslar	Ruslar qabristoni *(hozir mayit qo‘yiladi)*
7.	Qabriston	Oqtepa MFY	Nomsiz	Xolboyota	2011-yilda ochilgan va birinchi bo‘lib dafn etilgan Xolboy ota nomi bilan nomlangan
8.	Qabriston	Qirg‘izovul MFY	Nomsiz	Ukkiboyota	1960-yil Qirg‘izovul MFY hududida yashagan ikkinchi jahon urushi qatnashchisi nomi bilan bog‘liq
9.	Qabriston	Qirg‘izovul MFY	Nomsiz	Oqtoshota	1865-yilda ochilgan qabriston Mahalliy aholining Oqsog ota tog‘I tomonida joylashgan Oqtosh darasidan ko‘chib kelishi bilan bog‘liq
10.	Qabriston	Bo‘ston MFY	Nomsiz	Akulikota	1850-yilda ochilgan, millati qozoq,ovulni tashkil etilishida bosh rahbar bo‘lgan Akulik ota nomi bilan nomlangan
11.	Qabriston	Kumushkon MFY	Nomsiz	Salimboyota	1996-yilda ochilgan va birinchi bo‘lib dafn etilgan Salimboy ota nomi bilan nomlangan
12.	Qabriston	Chinorbuloq MFY	Nomsiz	Abdullaota	1905-yilda ochilgan va birinchi bo‘lib dafn etilgan Abdulla ota nomi bilan nomlangan
13.	Qabriston	Tojiboy Rizayev MFY	Nomsiz	Yo‘ldosh hojiota	2008-yilda ochilgan va birinchi bo‘lib dafn etilgan Yo‘ldoshhoji ota nomi bilan nomlangan
14.	Qabriston	Yangi Sanganak MFY	Nomsiz	Ibrohimota	1972-yilda ochilgan va birinchi bo‘lib dafn etilgan Ibrohim ota nomi bilan nomlangan

15.	Qabriston	Novdak MFY	Nomsiz	Abdulhofizota	1906-yilda ochilgan Novdak qishlog‘ida Abdulhofiz ismli diniyi ilmlar bilimdoni, islom dini muhofizi yashab o‘tgan
16.	Qabriston	Novdak MFY	Nomsiz	Hirot Buva	X asrga mansub qabriston tarixi qadimgi Xuroson davlatining poytaxti Hirot shahri nomi bilan bog‘liq deyiladi
17.	Qabriston	Novdak MFY	Nomsiz	*Chinoryo‘li* yoki *Chinorli,*	X asrga mansub ushbu qabriston hududida juda qadimiy chinor daraxti borligi sabab bo‘lgan
18.	Qabriston	Novdak MFY	Nomsiz	Malishaxon	Malishaxon qabristoni eng qadimiy qabriston bo’lib, tarixi XV asrlarga borib taqaladi. “Malishaxon” nomi asli erkak kishi ismi bo’lib, tegirmonchi, xum yasovchilarning avlodi bo’lgan
19.	Qabriston	Nevich MFY	Nomsiz	Zuhurota	2011-yilda ochilgan va birinchi bo‘lib dafn etilgan Zuhur ota nomi bilan nomlangan
20.	Qabriston	Tolbuloq MFY	Nomsiz	Tolbuloq	Ruslar qabristoni